

OGOHI SIRRI LEVENDNING NAVOIY “XAMSA” SIGA MUNOSABATI.

Raximova Yulduz*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada azaliy muhokama mavzularidan boʻlgan “Xamsa” yozish anʼanasi haqida soʻz boradi. Maqolada Hazrat Alisher Navoiy bitgan “Xamsa” masnaviyisi oʻzidan oldingi ustozlari yozgan xamsa asarlaridan nima bilan farqlanishi haqida qisqacha maʼlumot beriladi. Shuningdek, tadqiqotchi qardosh turkiyalik navoiyshunos olim Ogohi Sirri Levend Navoiy “Xamsa” siga qanday munosabat bildirgani haqida toʻxtalib oʻtadi. Olim oʻzining “Alisher Navoiy” deb nomlangan monografiyasida “Xamsa” oturkumidagi dostonlarni bir-biridan farqlab beradi. Shu bilan birga “Nazira.Javob.Tarjima” deb nomlangan bobida shu xususdagi fikrlarini isbotlar orqali dalillab beradi. Biz ushbu maqolada yuqorida nomi qayd etilgan atamalarning izohini olim nuqtayi nazariga ergashgan holda tahlil qilamiz.*

Kalit soʻzlar: *nazira, javob, tarjima, “Xamsa”, “Panj ganj”, E. Bertels, xamsachilik anʼanasi*

Abstract: *This article talks about the tradition of "Khamsa" writing, which is one of the topics of ancient discussion. The article gives brief information about how the "Khamsa" masnavi finished by Hazrat Alisher Navoi differs from the works of Hamsa written by his predecessors. Also, the researcher will talk about how the Turkish Navoi scholar Ogohi Sirri Levend reacted to Navoi's "Khamsa". In his monograph called "Alisher Navoi", the scientist differentiates the epics of the "Khamsa" series. At the same time, in the chapter called "Nazira.Javob.Tarjima" he proves his thoughts in this regard through proofs. In this article, we will analyze the interpretation of the above-mentioned terms from the point of view of a scientist.*

Key words: *view, answer, translation, "Khamsa", "Panj Ganj", E. Bertels, tradition of Hamsa*

Аннотация: *В данной статье говорится о традиции написания «Хамса», которая является одной из тем древних дискуссий. В статье дается краткая информация о том, чем маснави «Хамса», законченный Хазратом Алишером Навои, отличается от произведений Хамсы, написанных его предшественниками. Также исследователь расскажет о том, как турецкий навоийский ученый Огох Сирри Левенд отреагировал на «Хамсу» Навои. В своей монографии под названием «Алишер Навои» ученый дифференцирует эпосы серии «Хамса». В то же время в главе под названием «Назира. Джавоб. Тарджима» он доказывает свои мысли на этот счет доказательствами. В данной статье мы проанализируем толкование вышеперечисленных терминов с точки зрения ученого.*

Ключевые слова: *взгляд, ответ, перевод, «Хамса», «Пандж Гандж», Э. Бертельс, традиция Хамсы.*

Mumtoz adabiyot tarixiga nazar soladigan bo'lsak, badiiy asarlarni yaratishdagi an'anaviylik va novatorlik xususiyatlariga ko'p murojaat qilamiz. Shunday xususiyatlarni o'zida jamlagan silsilaviy asarlar sirasiga "Xamsa" turkumidagi dostonlarni ham kirgizishimiz mumkin. Ko'pgina olimlarning ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan bu jihat turkiyalik navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levendning "Alisher Navoiy" deb nomlangan monografiyasida ham o'z bayoniga ega. Olim kitobining "Navoiy Xamsasi. Nazira.Javob.Tarjima" deb nomlangan qismida xamsachilik an'anasiga batafsil to'xtalib o'tadi. Keying bo'limlarda esa Navoiy "Xamsa" dostoni tarkibiga kiruvchi barcha dostonlariga tavsif, qolgan "Xamsa" asariga mansub asarlar bilan taqqoslovchi fikrlarni bayon etadi. Olimning bu xususdagi fikr-mulohazalarini ayni holda taqdim qilamiz:

"Fors adabiyotidagi ilk xamsa sohibi Nizomiy Ganjaviydir. Nizomiyning "Panj ganj" nomi berilgan besh masnaviysi "Maxzan ul asror", "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar", "Iskandarnoma" ("Iqbolnoma" va "Sharafnoma") deya nomlanadi. Ikkinchi xamsa esa Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan maydonga kelgan. Uning besh masnaviysining nomi ham "Matlayi anvor", "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht behisht", "Oynayi Iskandar" dir. Keyinroq bir qancha shoirlar "panj ganj" yozgan bo'lsalar ham, oralarida besh masnaviyni tamomlagan juda ozdir.

Navoiy xamsasining beshinchi masnaviysi bo'lgan "Saddi Iskandariy"ning muqaddimasida:

Anga chiqmoq o'lmay kishining ishi
Magar kim chiqib bir iki uch kishi.
deb aytib o'tadi.

Navoiyshunos olim fikricha, fors adabiyotining eng yirik vakili sanalgan Abdurahmon Jomiy va turkiy adabiyotning eng buyuk ustoz bo'lgan Alisher Navoiyning san'atdagi qudratlarini isbotlash uchun bu ishga kirishishlari juda tabiiydir. Ogoh Sirri Levend har ikki shoir ham 1483- yilda xamsa yozishni boshlaganliklarini ta'kidlab o'tadi. Bu payt Jomiy 69 yoshda, Navoiy esa 42 yoshda edi.

Taniqli olim Navoiy o'z "Xamsa" sining yozilish maqsadini beshlik ichidagi masnaviylarda ta'kidlab, o'quvchiga bayon qilib berganligini ta'kidlaydi. Xususan, Navoiy xamsa tashabbusini "Hayrat ul abror" dostonida shunday aniqlashtiradi:

Bazmda bir kun yuzidin nur edi,
Har soridin nodira mazkur edi
Tushti chu rahrav bila payravg`a so`z
Yetti Nizomiy bila Xusravg`a so`z
Kim ne sifat olam aro soldi shayn
Ikkisining xomasidan xamsatayn.
Lek bu o`n turfaki topmish jamol,
Ikki burung`isida bor o`zga xol.
Gavhare yo`q "Maxzan ul asror"dek,
Axtare yo`q "Matla un anvor"dek.

Navoiy shu havasda xamsani boshlaydi va o'zidan oldin "Xamsa" yozishga muvaffaq bo'lgan ustozlarini maqtab o'tadi.

Navoiy “Xamsa”sini bitirgach ustozi Abdurahmon Jomiyga taqdim qiladi. Buni ushbu baytlarda shunday izohlaydi.

Qayu so`zda kim bir shual aylabon
Javobin degach zavqu hol aylabon
Qilib gah tahsin-u gahi duo
Ki,yuzdin biri yo`q manga muddao.

Olim oxirgi xulosasini bayon qiladi: “ Navoiyning masnaviylari Nizomiy Ganjaviy bilan Amir Xusrav Dehlaviyning masnaviylariga javobdir.” Tadqiqotchi olim o`z fikriga isbot sifatida “Javob” istilohiga biroz to`xtalib o`tmoqni joiz deb biladi.

“Nazira,javob,tarjima.

Bu atamalarning turk adabiyotida maxsus ma`nosi bor. Ba`zi turkologlar tarjima so`zini G`arbdagi ma`nosiga tayanib xató izohlar beradi. Blochet shulardan biridir. U “ les Enluminures des manuscrits orientoux-turcs, arabes, presans de la bibliotheque Nationale” (Paris 1926) nomli asarida Navoiy asarlarini Forscha adabiyot namunalariga bir taqlid deya yanglish munosabat bildiriladi. Fors tili va adabiyotini birgalikda o`rgangan turkolog olim Bertels “Navoiy va Attor” nomli tadqiqotida Attorning “Mantiq ut tayr” va Navoiyning “Lison ut tayr” asarlarini solishtirib ko`rar ekan, bu borada “tarjima” istilohini qo`llash kerakligini ta`kidlaydi, ba`zi G`arb turkologlarining yanglishganliklariga ishora qiladigan shu tushunchada qoladi: “Masala Amir Xusrav Dehlaviy “Panj Ganj” ini Nizomiyning “Xamsa” siga javob tariqasida yozadi. Bunga qarab Nizomiyning xamsasi eng original asarligini hech kim inkor eta olmaydi. Bu asar Nizomiyga taqliddan iboratdir, va bahosi yo`q degan iddaoda bo`lmaymiz. Turk adabiyoti va Eron adabiyotini qiyoslaganda bu nuqta ko`rib chiqilishi kerak.”

So`zimiz isboti o`laroq turkiyshunos olim Y.E. Bertelsning “Navoiy va Attor” nomli tadqiqotiga murojaat qilamiz: “Tarjima terminining o`zini sharq adiblari asarlariga nisbatan juda ehtiyotkorlik bilan qo`llash kerak,chunki uning biz bilgan ma`nosi Sharq adabiy shakllariga doimo ham mos kelavermaydi. Tarjima deganda biz faqat tarjimonning shaxsiyati yo`q darajaga keltirilgan asarni tushunamiz. Tarjimon o`z oldiga boshqa tilda ijod qilgan muallif asarini o`z tilida imkon boricha nafaqat material, formal nuqtayi nazaridan ham hech qanday o`zgarishlarsiz asliga mos holda tiklash vazifasini qo`yadi. Bu tamoyildan chekinish asliyatni pardozlashga olib keladi. Navoiy tadqiqotlari asosan uning asarlari umumiy mazmunini o`rganish bilan cheklanganlar vas hu bois tabiiyki, to`g`ri xulosaga kela olmaganlar”.

Ogoh Sirri Levend o`z fikrini davom ettirib shunday deydi: “Forschadan tarjima qilingan asarlarning G`arbdagi ma`nosi bilan “tarjima” deb sanamoq also to`g`ri emas. Yevropalik turkologlarning bu Turkcha asarlar haqida o`qimasdan “Forscha asarlarning yomon tarjimalari” hukmini berishlari juda xatodir. Bu asarlarda shunday parchalar borki,

Ilk yozgan muallifidan ham yuksak bir san`at qiymatiga ega. Shoirlar o`zlari muhokama qilgan mavzularni qayta ishladilar va kamtarlik bilan birinchi muallifning ishlarini nomladilar.

Nazira va javob atamalari uchun ham aynan shuni qo`llasa bo`ladi. Islomiy adabiyotda bir shoir boshqa shoirlarning she`rlariga g`azallariga nazira yozadilar” .



Xulosa o`rnida yuqorida muhokama qilingan mavzu ko`plab navoiyshunos olimlarning qizg`in muhokamasiga sabab bo`lib kelmoqda. Shuningdek, turk navoiyshunos olim Ogoh sirri levend ham o`z mulohazalarining so`nggida Navoiyning “Xamsa” si ustozlarining masnaviylariga javob tariqasida yozilgan deya fikrini xulosalaydi. Javob bo`lganda ham “original javob” deya shoirning masnaviylarini yuqori pog`onaga qo`yganligiga amin bo`lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. – T: Fan, 1966, 78-111 b.
2. Bertels ye E. Navoiy. – T:, 2015. (tarjimon I.K.Mirzaev).
3. Ogoh Sirri Levend.Alisher Navoiy,1965,-Anqara.
4. Muhiddinov M.Q. Nurli qalblar gulshani. Monografiya. – T: Fan, 2007.
5. Muhiddinov M. «Komil inson adabiyot – adabiyot ideali». – Toshkent: Ma'naviyat. – 2005.